

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IDROK VA FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Turg'unova Halimaxon Abdullajon qizi

Farg'ona viloyati Buvayda tumani 26-maktab psixologi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok jarayonining shakllanishi va rivojlanishining psixologik asoslari tahlil qilinadi. Idrokning yoshga xos xususiyatlari, uning tafakkur, diqqat va xotira bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida idrokni rivojlantirishga qaratilgan samarali psixologik usullar, interaktiv metodlar hamda o'yin texnologiyalarining ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: idrok, boshlang'ich ta'lim, psixologik rivojlanish, sezgi, tafakkur, diqqat, xotira, o'yin texnologiyasi, ko'rgazmalilik, individual yondashuv.

Kirish

Boshlang'ich sinf davri bolaning bilish jarayonlari faol rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda idrok jarayoni sezilarli o'zgarishlarga uchraydi va ta'lim faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Idrok - bu atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni ongda yaxlit aks ettirish jarayonidir. U sezgi asosida shakllanadi, biroq tafakkur, tajriba va nutq bilan boyib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok ko'proq konkret-obrazli xarakterga ega bo'ladi. Ular ko'rish, eshitish va harakat orqali o'rganishga moyil bo'ladilar. Shu sababli ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmlar, jadvallar, modellar, didaktik o'yinlar va tajribalar orqali berilgan ma'lumotlar bola tomonidan tezroq va mustahkamroq o'zlashtiriladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, idrokning rivojlanishi diqqat va xotira bilan uzviy bog'liq. Diqqatning barqarorligi past bo'lgan o'quvchida idrok jarayoni ham yuzaki kechadi. Shu bois dars jarayonida qisqa, mazmunli va faol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu borada Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan yaqin

rivojlanish zonasi nazariyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bolaning mavjud imkoniyatlari va qo‘llab-quvvatlash orqali erishishi mumkin bo‘lgan darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradi.

Shuningdek, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo‘ladilar. Bu davrda ular real predmetlar va aniq vaziyatlar asosida fikrlaydilar. Demak, idrokni rivojlantirish uchun abstrakt tushunchalarni ham konkret misollar orqali tushuntirish zarur.

Idrokni rivojlantirishning samarali usullaridan biri — taqqoslash va tahlil qilish mashqlaridir. Masalan, ikki predmetning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, shakl va ranglarni ajratish, matndagi asosiy g‘oyani topish kabi vazifalar bolaning kuzatuvchanligini oshiradi. Bundan tashqari, mozaika, konstruktorlar, rasm chizish, tabiatni kuzatish kabi faoliyatlar ham idrok jarayonini boyitadi.

O‘yin faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yetakchi faoliyat turlaridan biridir. Didaktik o‘yinlar orqali bolalar sezgi organlari yordamida ma’lumotni faol qabul qiladilar va qayta ishlaydilar. O‘yin jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratiladi, bu esa idrokning samaradorligini oshiradi.

Nutq rivoji ham idrokni chuqurlashtiradi. Bola ko‘rgan va eshitganlarini so‘z bilan ifodalaganida, ularni ongida mustahkamlaydi. Shu sababli savol-javob, hikoya tuzish, muhokama qilish usullari dars jarayonida muhim o‘rin tutadi. Individual yondashuv esa har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi. Animatsiyalar, interaktiv taqdimotlar, audiovizual materiallar bolalarning qiziqishini oshiradi va ko‘p kanalli idrokni ta’minlaydi. Biroq bu vositalardan me’yorida va maqsadga muvofiq foydalanish lozim.

O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishda o‘quv predmetlarining o‘rni beqiyos. Bu borada, ayniqsa, matematika ta’limi zimmasiga katta mas’uliyat tushadi. Darslik asosan o‘quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual

xususiyatlari, XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib boradi.

Insonning dunyoni anglashi, tushunishi, unga ongli munosabatda bo‘lishi kabi bilish jarayonlarini tafakkur yuritish, fikrlash jarayoni deyish mumkin. Fikrlash jarayonlarining psixologik asoslarini psixolog V. Karimova tahlil qilgan.

U: fikrlash inson miyasi faoliyatidir, – deb ko‘rsatadi va fikriy operatsiyalarni quyidagicha tahlil qiladi. Eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab muammolarni hal etishga qaratilgan operatsiyalar hammasi miyada sodir bo‘ladi. Miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o‘zaro uzviy bog‘liqdir.

Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har on, har daqiqada inson miyasi qandaydir fikrlar bilan band. Ularni tartibga solish, keragiga qaratish, ichki yoki tashqi nutq yordamida uni yechish - fikrlash jarayonidir. Tafakkur yoki fikrlashning quyidagi shakllari yoki mahsuli mavjud:

Tushuncha - tafakkurning shunday shakli yoki mahsuliki, u narsa va hodisalarning eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Ular umumiy, juz’iy, konkret yoki mavhum bo‘lishi mumkin.

Hukm - atrofdagi narsa, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko‘p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog‘liqliklarni tasdiqlaydi, inkor qiladi, rost yoki yolg‘on bo‘ladi.

Xulosalar - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo‘lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlardan yangi fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

Tahlil qilish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish kabi operatsiyalar fikrlash jarayonini tashkil etadi. Quyida ularning har biri ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Tahlil qilish - bu muammoni fikran qismlarga ajratishdir.

Umumlashtirish - alohida qismlarni yoki elementlarni fikran bir butunga birlashtirib o‘rganishdir.

Ta'lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o'quvchilarda tahlil qilish va umumlashtirish darajasining oshishi kuzatiladi. Tahlil qilish sekin-asta ko'rgazmali-amaliylikdan ko'rgazmali va mantiqiy yakun tomon rivojlanadi.

Taqqoslash - o'xshashliklar va tafovutlarni topish orqali bilish obyektlarini qiyoslash demakdir. Bu operatsiya boshqa barcha fikriy operatsiyalar asosida yotadi.

Mavhumlashtirish - bilish obyektining bir xususiyatini ajratib olib, boshqasini chiqarib tashlashdan iborat fikriy operatsiyadir. Bu xususiyatlar o'rganilayotgan predmet va hodisalarning «ichiga» kirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflardan o'quvchilarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi – hissiy ko'rgazmalilikdan fikr yuritishga o'tiladi hamda tushunchaga aylanadi.

Aniqlashtirish - mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya, u umumiydan xususiyyga o'tish, natijada uning turli xususiyat va belgilarini topish orqali namoyon bo'ladi.

Mavhumiylik va aniqlashtirish birligi muammoni o'rganish jarayonida o'rnatiladi. Bu birlik o'zaro munosabatga fiziologik asos - ikkinchi signal tizimiga ega. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar va dalillar aniqlashtirilgandagina erishiladi.

Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida fikrlash qobiliyatini aniqlashtirish ikki shaklda olib boriladi:

hissiy - ko'rgazmali vositalar (matnlar, rasmlar, jadvallar) asosida;

so'z orqali - mavhum shaklda (hikoya qilish, tushuntirish, maxsus topshiriqlarni hal etish).

Fikrlash faoliyatiga konkret ta'rif beradigan bo'lsak.

Fikrlash - bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir⁷.

Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uygʻotib, tafakkurni rivojlantiradi. Maʼlumki, tafakkur – inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, ayni hatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkurning individual xususiyatlariga:

- mustaqillik
- oʻzgarish
- fikrning tezligi kabi xususiyatlari kiradi.

Oʻquvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz taʼlim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bogʻliq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson oʻz xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli boʻlsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili taʼlimi oldida nechogʻli masʼuliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas.

Oʻquvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari sifatida biz quyidagilarni koʻrsatishimiz mumkin:

- oʻrganilayotgan materialni mustaqil tahlil qila bilish;
- muammoni hal eta bilish;
- hodisa va jarayonlardagi belgilarni taqqoslash, umumlashtirish, umumlashma
- xulosalar chiqarish;
- oʻz fikri va tushunchasini mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash;
- oʻzlashtirilgan bilimlarni amalda qoʻllay bilish.

Oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga oʻrgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda yuksak eʼtiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali mutaxassislarga har qachongidan ham katta ehtiyoj bor. Oʻquvchilarning shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishda oʻquv predmetlarning oʻrni beqiyos kattadir. Oʻquvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirish iqtidoriga ega boʻlishi ularning oʻquv-biluv koʻnikma va malakalariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻquvchilar bilish faoliyatini shakllantirishga bagʻishlangan adabiyotlarning nazariy tahlili va pedagog olimlarning qarashlari

o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyati mohiyatini tushunishda hozircha yakdillik yo'qligini ko'rsatmoqda.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrokni rivojlantirish ta'lim samaradorligining muhim shartidir. Ko'rgazmalilik, o'yin texnologiyalari, individual yondashuv, nutq faoliyatini rag'batlantirish va ijobiy psixologik muhit yaratish orqali idrok jarayonini yanada takomillashtirish mumkin. Idroki rivojlangan bola atrof-muhitni to'g'ri anglaydi, bilimni ongli ravishda o'zlashtiradi va keyingi bosqich ta'limiga mustahkam tayyorgarlik bilan o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avtomobillar xarakat xavfsizligiga faol ta'sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko
2. 'rsatkichlari// MUBB O'G, SAI O'G'Li//Механика и технология, // 123-128
3. Road traffic safety and its impact on the development of modern road-transport expertise// MU Boliqul o'g//Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 7, // 157-164
4. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions//MU Boliqul o'g//Eurasian Research Bulletin 18, // 114-132
5. Ziyo.net